

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**RO'YXATGA OLINDI**  
№ ym – 343 - 5A340607 – 2.03  
«1» Iyul 2003 y

**«TASDIQLANDI»**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

---

«8» Iyul 2003 y

**«BIRJA ISHI VA JAHON BIRJA TIZIMI»  
FANIDAN**

**DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»  
ta'lim sohasidagi 5A340607 - «Xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar»  
magistratura mutaxassisligi uchun**

**Tuzuvchilar:** dots. Shoxa'zamiy Sh.Sh.  
dots. Djuraev V.D.

**Taqrizchilar:** dots. Toxtabaev T.R.  
dots. Abduraimov A.A.  
dots. Ismoilov K.

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuniga va Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan hamda ularning negizida ishlab chiqilgan 5A340607 – «Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar», 5A340608 – «Qimmatli qog'ozlar va birja ishi», 5A340614 – «Investitsiyalar bozorlarini boshqarish» va 5A340708 – «Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari» ta'lim sohalari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari talablari doirasida tayyorlangan. Dasturda fanning nazariy, uslubiy, amaliy mavzulari va masalalari etarli darajada yoritilgan. Dastur doirasida fanni o'rganish zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalarga asoslanadi. Dastur iqtisodiy yo'nalishdagi magistratura talabalarini o'qitishga mo'ljallangan.

Настоящая программа подготовлена на основе Закона Республики Узбекистан «Об образовании» и постановления Кабинета Министров от 16 августа 2001 г., №343, а также разработанных на их основе Государственных Стандартов по направлениям образования 5A340607 – «Операции на международных финансовых рынках», 5A340608 – «Ценные бумаги и биржевое дело», 5A340614 – «Управление рынками инвестиций» и 5A340708 - «Операции с ценными бумагами в банках». В программе в достаточной мере освещены теоретические, методологические, практические темы и вопросы дисциплины. Изучение дисциплины в рамках программы основывается на современные педагогические, учебно-методические, научные и практические технологии. Программа предназначена для обучения студентов магистратуры экономических направлений.

This program was prepared according to the law of the Republic of Uzbekistan “ About Education” and to the enactment of the Cabinet of Ministers (from August 16, 2001, №343), as well as according to the State Educational Standards, such as 5A340607- “Operations at International Financial Markets”, 5A340608- “Securities and Stock Exchange”, 5A340614 – “ Management of Investment Markets ”, 5A340708 – “Securities operations of banks”, created on basis of the aforementioned laws. Theoretical, methodological, practical themes and issues of the discipline were sufficiently stated in the program. According to the program, studies of the discipline are based on the up-to-date pedagogical, educational, methodological, scientific, and practical technologies. The program is designed for tuition of graduate students’ of economical directions.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## 1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida, Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida har tomonlama etuk va barkamol mutaxassislarni tayyorlash - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi qayd etilgan. Ushbu ishlarni amalga oshirish borasida Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan 5A340607 – «Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar», 5A340608 – «Qimmatli qog'ozlar va birja ishi», 5A340614 – «Investitsiyalar bozorlarini boshqarish» va 5A340708 – «Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari» ta'lim sohalari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari joriy qilindi. Amaldagi Standartlar asosida tayyorlangan dastur «Birja ishi va jahon birja tizimi» fanining nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari va masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalarga asoslanadi. Dastur iqtisodiy yo'nalishdagi magistratura talabalarini o'qitishga mo'ljallangan.

### **O'qitishning maqsadi va vazifasi hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

O'qitishning maqsadi talabalarga birja ishi va tizimi sohasidagi faoliyatning umumlashtirilgan nazariy, metodologik, amaliy bilim va ko'nikmalarini berishdir.

O'qitishning vazifasi bo'lib, talabalarni birja ishi va tizimi sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va amaliy-ishlab chiqarish faoliyatga tayyorlash hisoblanadi.

«Birja ishi va jahon birja tizimi» fani magistraturaning 5A340607 – «Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar», 5A340608 – «Qimmatli qog'ozlar va birja ishi», 5A340614 – «Investitsiyalar bozorlarini boshqarish» va 5A340708 – «Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari» mutaxassisliklarini asosiy fanlaridan biri bo'lib, bu fan ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasidagi boshqa fanlarga asoslanadi va ular bilan uzviy bog'langan.

«Birja ishi va jahon birja tizimi» fani doirasida magistrant-talabalar bilimiga, o'quviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Talabalar fanni o'rganish natijasida fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishishlari lozim, shu doirada olgan bilimlarini, o'quvlarini va ko'nikmalarini ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va amaliy-ishlab chiqarish faoliyatlarida ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlarida talab qilinganidek samarali qo'llay olishlari kerak.

### **Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar**

Talabalarga zamonaviy usulda fanni o'rgatish va ularning bilimni baholash uchun quyidagi texnologiyalar va materiallardan foydalaniladi:

- talabalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqari o'qitishning, mustaqil ta'limning ilg'or pedagogik usullari;
- o'qitishning texnik vositalari, o'quv filmlari, slaydlar, didaktik materiallar, plakatlar, testlar, amaliy masalalar, ish o'yinlari, ko'rgazmali qurollar, elektron materiallar, statistik axborot, tarqatma o'quv materiallari, metodik ko'rsatmalar, yangi darsliklar, ma'ruza matnlari, monografiyalar;
- tegishli qonuniy va me'yoriy hujjatlar;
- fan bo'yicha xalqaro va O'zbekiston tajribasiga oid tegishli materiallar;
- kompyuter-axborot texnologiyalari, maxsus dasturlari va INTERNET yordamida fanga tegishli bilim va materiallar;
- talabalar bilimni muntazam joriy, oraliq va yakuniy baholashda so'rov, referatlar yozish, test-tekshiruv, amaliy masalalar echish usullaridan foydalanish;
- iqtidorli talabalarga fan doirasida chuqurroq, qo'shimcha va mustaqil ishlashlari uchun sharoitlar yaratib berish;
- mutaxassislarining ilmiy-amaliy maqolalari, moliya bozori (MB) va qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) bo'yicha rasmiy axborot byulletenlari va hisobotlar.

### **Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

«Birja ishi va jahon birja tizimi» fani magistraturaning 5A340607 – «Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar», 5A340608 – «Qimmatli qog'ozlar va birja ishi», 5A340614 – «Investitsiyalar bozorlarini boshqarish» va 5A340708 – «Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari» mutaxassisliklarida I semestrda 20 hafta davomida ushbu dastur asosida o'qitiladi.

Fanni o'qitish mobaynida dasturning fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar bandida keltirilgan materiallar va texnologiyalar uslubiy ko'rsatmalar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Fanni o'rganish ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada amalga oshiriladi. Talabalar auditoriyada olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashi hamda uy vazifalarini bajarishlari uchun mustaqil ta'lim kiritilgan. Ularning olgan bilimlarini nazorat qilib borishning test-sinov, oraliq, joriy va yakuniy baholash usullari qo'llaniladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi va ular o'qituvchilar tomonidan baholanadi.

### **Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Davlat Ta'lim Standartida «Birja ishi va jahon birja tizimi» faniga jami 120 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan 80 soat (40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy mashg'ulot) auditoriya mashg'ulotlariga, 40 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim o'qituvchilar rahbarligida auditoriyada o'tiladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzusi**

#### **Birjaviy bozor o'rni va asoslari**

*Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida moliya va tovar bozorlarining rivojlanishi.* Sh.Shoxa'zamiyning moliya va qimmatli qog'ozlar bozorini strukturaviy-funksional modellarini talqini va qo'llanilishi;

*Birjaviy bozorni shakllanishining sabablari va shart-sharoitlari.* Birjaviy bozorni rivojlanishiga moliya va tovar bozorlarining ta'siri;

*Birjaviy tovarni moliya bozorlaridagi hamda iqtisodiyotdagi roli. Birjani paydo*

*bo'lishining tarixiy retrospektivasi. Birjaviy bozorni muvofiqlashtirish asoslari. Birjalarning turlari, birjani tashkil etish shakllari. Birjaviy faoliyatning asosiy tamoyillari. Birjaviy faoliyatda vositachilik, operatsiyalar va shartnomalar. Birjaviy savdoning evolyutsiyasi va mexanizmi. O'zbekistonda birjaviy bozorni shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari, qonuniy-me'yoriy asoslari va istiqbollari.*

### **Birja, uni savdo tashkilotchisi sifatidagi vazifalari**

*Tovar birjalarini zamonaviy qimmatli qog'ozlar birjasiga aylanishi evolyutsiyasi. Universal va maxsus (tovar-fyuchers) birja. Fyuchers-opsion birja, fond birjasi, valyuta birjasi, ko'chmas mulk birjasi, intellektual mulk ob'ektlari savdosi birjasi, mehnat birjasi. Jamoatchilik-huquqiy va xususiy-huquqiy birjalar, aralash birjalar. Xalqaro va milliy birjalar. Birjalarning asosiy funksiyalari, ochiq jamoatchilik tashkilotlari funksiyasi, bozor iqtisodiyotining narx (baho) regulyatori funksiyasi, axborot-analitik funksiyasi. Shartnomaviy operatsiyalarni sug'urtalash va xedjirlash, kafolatli bajarish. Savdoni tashkil qilish tamoyillari. Birja faoliyatini muvofiqlashtirishning asosiy tamoyillari. Birjada narxlar manipulyatsiyasini oldini olish tartiblari;*

*Birja a'zolariga nisbatan birja tartiblarini buzish hollarida qo'llaniladigan jazolar (sanktsiyalar). Savdolarni ta'minlash uchun zarur birjaviy infratuzilma (depozitariylar, hisobkliring palatalari, axborot-reyting agentliklari, ekspert-analitik firmalar, birjaviy omborlar). O'zbekistonda savdolarni ta'minlash uchun zarur birjaviy infratuzilma;*

### **Birjaviy tovar, uni tarkibi va turlari**

*Birjaviy tovar tushunchasi, tarkibi va asosiy sinflari. Mulkiy va real tovarlar, qimmatli qog'ozlar, derivativlar, xorijiy va milliy valyuta. Tovar birjalarida birjaviy tovarlarning asosiy turlari. Real tovarning xususiy va farqli tomonlari va ikki guruhi, real tovar sifatiga qo'yiladigan talablar, real tovarni standartlashtirish ekspertizasi va sertifikatlashtirish. Real tovarni birja omboriga kiritishda uning sifatini nazorat qilish;*

*Qimmatli qog'ozlar birjaviy tovar sifatida, tovar sifatida qimmatli qog'ozlarning jamiyat uchun zaruriy funksiyasi. Birjaviy tovar sifatida qimmatli qog'ozlarning xarakteristikasi: vaqtiy, fazoviy va bozoriy. Qimmatli qog'ozning tovar sifatidagi xususiyatlari, shakllari, turlari;*

*Valyutaning tovar sifatidagi xarakteristikasi. Valyuta kursi tushunchasi, valyuta kursining (almashinuv) uch asosiy tizimi: belgilangan, erkin suzuvchi, boshqaruvchan suzuvchi. Valyutalarning to'g'ri va teskari kotirovkasi, valyutani sotish va sotib olish, krosskursi, erkin konvertatsiyalanuvchi valyuta. O'zbekistonda birjaviy tovarlar sifatida qimmatli qog'ozlar, valyuta, real tovar xususiyatlari;*

### **Bazis bozorlar: tovar, qimmatli qog'ozlar va valyuta**

*Tovar bozori: infratuzilmasi, unsurlari, asosiy ko'rsatkichlari, geografik belgi va tovar tarmoqlari belgisi bo'yicha tasnifi. SPOT-bozor, forvard va fyuchers savdosi. Tovar bozori tuzilmasi: monopolistik, oligopolistik, atomistik. Tovar bozorining asosiy sektorlari: ochiq va yopiq;*

*Qimmatli qog'ozlar bozori: urni, funksiyalari, turlari, infratuzilmasi, segmentlari, ishtirokchilari, operatsiyalari, muvofiklashtirish, rivojlanish tendentsiyalari, siyosatlari;*

*Valyuta bozori: urni, funksiyasi, tasnifi, infratuzilmasi, ishtirokchilari, savdo operatsiyalari, muvofiqlashtirish, siyosatlari, instrumentlari;*

### **Birjani tashkillashtirish va boshqarish**

*Birjani tuzish, qayta tashkil qilish va tugatish mexanizmi (tartibi), Ustavi, ustav fondi, tashkiliy-huquqiy shakli va maqomi, faoliyat mexanizmi, ichki me'yoriy hujjatlari, faoliyatini litsenziyalash va moliyalashtirish. Birjaviy savdo ishtirokchilari, birja a'zolari va*

ularning kategoriyalari. Birja va uning ishtirokchilari huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi. Birjaning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv organlari, bo'limlari. Birjaning maxsus organlari: ekspert-kotirovka qilish komissiyasi, listing komissiyasi, malaka komissiyasi, etika komissiyasi, shu'ba va tobe jamiyatlari;

### **Birjaviy bozorda brokerlik idoralar faoliyatini tashkil etish**

Birjada vositachilik, brokerlik joyi, brokerlik idorasi (firmasi), brokerlik firmasini o'rni, funktsiyasi, akkreditatsiyasi, litsenziyalash va faoliyat tartibi (mexanizmi). *Brokerlik firmasining tuzilmasi, ustavi, mutaxassislari va ularni attestatsiyalash, treyderlari, bek-ofisi (back-office), qimmatli qog'ozlar operatsiyalari hisobi.* Birjada brokerlik va dilerlik faoliyati. Vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga ko'yiladigan talablar (malakaviy va iqtisodiy). Fond birjalarida market-meykerlik. Birja vositachilari va mijozlar o'rtasidagi o'zaro muomala: savdo topshirig'i va uning turlari, birjaviy buyruk (order) va uning turlari –bozor buyrugi (market order), limitli (limit order), stop-zakaz (stop order). Topshiriq va komission shartnoma, ularni tuzish tartibi. Birja tovarini mijoz tomonidan sotishga va sotib olishga topshiriqni tuzish (berish). *Birjaviy broker tomonidan mijoz uchun operatsiya natijalarini tayyorlash.* Mijoz uchun brokerning hisoboti, uni tayyorlash. Brokerlik firmasi xizmatlari uchun to'lov. Brokerlik firmasi faoliyatini moliyalashtirish.

### **Birja savdolariga qimmatli qog'ozlarni kiritish tartibi**

Qimmatli qog'ozlar listingi va uni birjadagi tartibi. Qimmatli qog'ozlar ekspertizasi amalga oshirish tartibi, emitentning ekspertizaga topshirgan hujjatlariga talablar. *Emitentlar moliyaviy holatini detallashtirilgan va ekspress tahlili. Rasmiy birjaviy ro'yxat va unga kiritilish uchun qimmatli qog'ozlarga kuyilgan talablar.* Rasmiy birjaviy ro'yxat kategoriyalari: listingli, listing oldi va listingdan tashqari korxonalar. Rasmiy birjaviy ro'yxatga kiritilishda emitentlarga ko'yilgan talablar. Qimmatli qog'ozlar delistingi va relistingi. *Rasmiy birjaviy ro'yxatga kiritilish uchun to'lanadigan badallar.*

### **Birjaviy savdoni tashkillashtirish**

Birjaviy savdolar tartibi va qonuniy tartibda o'rnatilgan uning asosiy qismlari. Birjada savdolari olib boruvchi xizmat (makleriat) va uning faoliyati. Ishtirokchilarni birjaviy savdoga kiritish tartibi. Savdolari olib borish reglamenti. Birjaviy operatsiyalar: kassaviy va muddatli. Agentlar va dilerlar bozori. Birjaviy axborot, uni brokerlarga taqdim etish tartibi. Oddiy va qo'shaloq auksion shaklida savdolari olib borish mexanizmi. Oddiy auksion turlari: inglizcha, gollandcha va sirtqi;

Qo'shaloq auksion turlari: yoppali va uzluksiz. Uzluksiz qo'shaloq auksion turlari. Savdolari amalga oshirish texnikasi: ovozli rejim, elektron rejim, aralash rejim. Savdoni tashkillashtirish usullari: bevosita birjaviy operatsion zalida va "on line" rejimi. Elektron savdo tizimi, uning asosiy moduli. *"Toshkent" RFBsida elektron savdoni tashkillashtirish.* Etuk xalqaro birjalarda savdolari tashkillashtirish xususiyatlari. *Moskva banklararo valyuta birjasida (MMVB) elektron savdolari tashkillashtirish tajribasi.*

### **Tovar, valyuta va fond birjalarida shartnomaviy operatsiyalarni tuzish tartibi**

*Birjaviy operatsiyalar (shartnomalar) xarakteristikasi.* Birjaviy va nobirjaviy operatsiyalar, ularning farqi. Tug'ridan tug'ri va vositachi orqali operatsiyalar. Brokerlik va dilerlik operatsiyalar. Ulgurji va chakana operatsiyalar;

*Tovar birjalarida birjaviy operatsiyalar tavsifi.* Real tovar bilan operatsiyalar va real tovarsiz operatsiyalar (fyuchers va opsiyonlar bilan), ularning texnologiyalari. Naqd va

forvard operatsiyalar. Forvard operatsiyalar turlari. *Birjada operatsiya shartnomasini tuzish va qayd etish;*

*Valyuta birjalarida birjaviy operatsiyalar tavsifi.* Kassaviy (“SPOT”) va muddatli (“Forvard”) operatsiyalar. Valyuta birjasida muddatli operatsiyalar turlari: oddiy muddatli va muddatli almashtirish (“SVOP”) operatsiyalar. Valyutani oldi-sotti operatsiyalarini tuzish texnologiyasi. *O‘zbekiston Respublika Valyuta Birjasida xorijiy valyutalar bilan savdo qilish tartibi;*

*Fond birjalarida qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari xarakteristikasi va bosqichlari.* Fond birjasida tasdiqlangan va tasdiqlanmagan operatsiyalar, kassaviy va muddatli operatsiyalar. Muddatli operatsiyalar turlari: oddiy (mustahkam), fyuchersli, shartli (optionsli), uzaytirilgan (prolongatsiyalangan)-report va deport. Qimmatli qog‘ozlarning standart loti tushunchasi. *Fond birjasida operatsiya shartnomasini tuzish va qayd etish;*

### **Birjada fyucherslar savdosini tashkillashtirish**

*Birjada fyuchers savdosi tushunchasi, fyucherslar savdosini paydo bo‘lishi tarixi va sabablari.* Fyuchers va forvard kontraktlari, ularni xususiyatlari va farqlari, fyuchers kontraktlarini standartlashtirish. Fyucherslarning turlari: tovar va moliyaviy (hisobli). Tovlar fyucherslarining turlari va ularni tuzish xususiyatlari. Moliyaviy fyucherslar: kiska va uzoq muddatli foizli fyucherslar, fond bozori indekslariga fyucherslar, valyuta fyucherslari, oltin fyucherslar va ularni tuzish mexanizmi;

Birjada shartnomaviy operatsiyalar bajarishni kafolatlash tizimi; *Asosiy xalqaro fyucherslar birjasi.* Birjaviy fyucherslar savdosi mexanizmi va uning asosiy unsurlari. To‘g‘ri va teskari (ofset) fyuchers operatsiyalar. Fyucherslar savdosining terminologiyasini uzun va qiska pozitsiyalarni ochish. Fyuchers kontraktlarini oldi-sottisiga shartnoma operatsiyalarni tuzish va bajarishning texnologik jarayoni va uning asosiy bosqichlari. Fyuchers savdosidagi hisob-kitob tartibi, birjaning hisob (kliring) palatasi, uning funksiyasi va a‘zolari. Birjada fyuchers kontraktlarini qayd etish xususiyatlari, garov tushunchasi, fyuchers kontraktlarini qayd etishda garov summalarini undirish tartibi, real tovarni fyuchers kontrakti bo‘yicha etkazish;

Fyucherslar savdosi bilan bog‘lik birjaviy savdo o‘yinlari jarayonlarida xedjirlash, birjada xedjirlash texnikasi, fyuchers va natural bozorlarda xedjirlash, “qisqa” (fyuchers kontraktini sotish bilan xedjirlash) va “uzun” (fyuchers kontraktini sotib olish bilan xedjirlash) xedj. Fyuchers kontraktlari bozorida birjaviy strategiyalar: bozorichi va bozorlararo, birjaichi va birjalararo. Birjaviy savdogarlar turlari: “buqalar” va “ayiqalar”. Fyuchers kontraktlarini sotish va sotib olishning turli vaqt va bir vaqtdagi strategiyalari. Fyuchers kontraktlarining narxlarini shakllantirish, narxga ta‘sir etuvchi omillar, real tovarga va qimmatli qog‘ozga fyuchers kontraktlari bahosini hisoblash, arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish. Fyuchers kontrakti bazisi tushunchasi, fyuchers savdosidagi moliyaviy hisoblashlar va ularning bosqichlari. Marja tushunchasi, variatsion marjani hisoblash. *Fyuchers savdosining jahon tajribasi: Chikago savdo palatasi, Rossiya birjasi, Moskva banklararo valyuta birjasi. O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasida fyucherslar savdosi to‘g‘risidagi Nizom.*

### **Birjada optionslar savdosini tashkillashtirish**

*Birjaviy options tushunchasi, turlari (sotib olishga options (options-koll) va sotishga options (options-put)), toifalari (amerikacha va evropacha).* Birjaviy aktiv belgisi bo‘yicha optionslar tasnifi: tovar, valyuta, fond va fyuchers. Options bahosi tushunchasi: mukofot va bajarish bahosi (strayk-baho). Birjaviy optionslarning standart konstruksiyasi: aktsiyaga, fond indekslariga, foizga, valyutaga, fyuchersga. Boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarga nisbatan optionslarning afzalliligi;

Birjaviy options strategiyalari: oddiy, spread, kombinatsion, sintetik. Oddiy options

strategiyalar va ularning xarakteristikasi. Spredlar turlari: gorizontal, vertikal va diagonal. Kombinatsion strategiyalar turlari: «stredl» va «strengl». Sintetik strategiyalar turlari. Birjaviy opsiyonlar narxlarini shakllanishi, opsiyon narxini shakllantiruvchi faktorlar, opsiyon bahosi: ichki va vaqtli. Opsiyon: «pul ichidagi» yoki «puldagi»; «pulsiz»; «o'z pulidagi» yoki «pul oldidagi». Opsiyon mukofotiga ta'sir etuvchi omillar. «Koll» opsiyon bahosini aniqlash bo'yicha Blek-Shoulz formulasi. Natural (fizik) va opsiyon bozorida xedjirlash;

*Chikago opsiyonlar birjasida opsiyonlar savdosi, uning asosiy ishtirokchilari: bord-brokerlar, market-meykerlar, flor-brokerlar. Opsiyon kontraktlarini standartlashtirish. Opsiyon kontraktlar bo'yicha hisob-kitoblar.*

### **Birjaviy savdolar bo'yicha kliring va hisoblashuv**

*Kliring va birjaviy kliring tushunchasi. Birjaviy operatsiyalarning tarkibiy qismlari, operatsiyalar bo'yicha kliring va hisoblashuvlar birjaviy tizimlarini tuzishning zamonaviy asoslari, operatsiyalar bo'yicha kliring va hisoblashuvlarning tasnifi va tamoyillari, birjaviy operatsiyalarni amalga oshirishdagi risklarning asosiy turlari;*

*Fond bozorida operatsiyalar bo'yicha kliring va hisoblashuv, uning jarayoni. Fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bosqichlari: operatsiya shartnomasini tuzish, tuzilgan shartnoma parametrlarini solishtirish, kliringni va uning protsedurasini (kichik bosqichlari) amalga oshirish. Qarama-qarshi talablarni o'zaro hisoblashuvi tushunchasi, o'zaro hisoblashuv turlari: bir tomonlama va ko'p tomonlama. "Pozitsiya" tushunchasi, pozitsiyani tugatish, kliringdagi "netting" mexanizmi, pozitsiyalarni tartiblashtirish, "noveyshn" usuli. Hisoblashuv hujjatlarini to'ldirish. Yakuniy bosqich-fond bozorida operatsiya shartnomalarini bajarish, uni xarakteristikasi. Operatsiya shartnomalarini bajarish va ular bo'yicha hisoblashuvning xalqaro standartlari. Operatsiyalar shartnomasini bajarishning "to'lovga qarshi etkazib berish" tartibi;*

*Qimmatli qog'ozlar bo'yicha pulli hisoblashuvlarni tashkillashtirish, xalqaro depozitar-kliring tizimlari, maxsus va milliy tizimlari, ularning faoliyati mexanizmi, modeli va xususiyatlari. Fyucherslar, opsiyonlar va SVOP bozorlarida kliring va hisoblashuv xususiyatlari. Xalqaro tajriba. O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjalari hisob (kliring) palatasi to'g'risidagi Nizom;*

*Fond bozorida kliring va hisoblashuvdagi risklar. Risklar turi va manbalari. Qoplash bo'yicha zarar ko'rish riski (replacement cost risk). Qarzning asosiy summasini yo'qotish riski (principal risk). Likvidlik riski (liquidity risk). Yo'qotilishi mumkin bo'lgan va yo'qotilishi mumkin bo'lmagan risklar. Yo'qotilishi mumkin bo'lgan risklarni tugatish tizimi va modeli. Fond bozorida yo'qotilishi mumkin bo'lgan risklarni minimizatsiya qilish usullari. Birja savdosi ishtirokchilariga minimal talablarni va ularning operatsiyalariga limitlar o'rnatish. Savdo ishtirokchilari o'rtasida risklarni taqsimlash usulini qo'llanilishi. Kliring tashkilotida maxsus rezerv (zaxira) fondlarini va zararlarni taqsimlash tizimini tuzish. Nochor qarzdorlarni kreditlash tizimi va mexanizmi. «Tashqi» kafolat tizimini tuzish. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblashuv va kliring tizimlarini rivojlanishi istiqbollari. Qimmatli qog'ozlarni dematerializatsiyalash. Qimmatli qog'ozlarning elektron savdosini rivojlantirish. Hisoblashuv davrlarini unifikatsiyalash. Kliring va hisoblashuv tashkilotlarini integratsiyalashuvi. Qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat ko'rsatuvchi kompleks tizimlarni tuzish.*

### **Birjaviy kotirovka va birjaviy narxni belgilash**

*Qimmatli qog'ozlarning birjaviy kotirovkasi tushunchasi, kursi, narxi. Birjaviy savdo sessiyasining yopilish va ochilish narxi tushunchasi. Birjaviy auksionlar tizimiga bog'lik ravishda birjaviy narxni belgilash. "Toshkent" RFBirjasida qimmatli qog'ozlar kotirovkasi to'g'risidagi Nizom. Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi shartlari va tartibi. Kotirovka varag'i va kotirovkalar jurnali, ularni tuzish tartibi. Birjaviy narxni belgilash. "Toshkent" RFBirjasida kotirovka narxini belgilash Instruktsiyasi;*



Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi usullari va ularni turli etakchi jahon birjalarida qo'llanilishi. "Yagona kurs" usulini Frankfurt fond birjasi misolida qo'llanishi. Birjaviy narxni belgilanishida kurs maklerining roli. Ochilish narxini belgilash tartibi. Operatsiya shartnomalarini qoniqtirish mexanizmi;

Oddiy va uzluksiz auksionda "qayd etish" usulini qo'llanishi. *Nyu York fond birjasida birjaviy narxni aniqlash mexanizmi*. Bozorni kotirovka narxini belgilashda va qo'llab-quvvatlashda "mutaxassisning" roli. Auksion jarayonida narxni belgilash mexanizmi. Birjaviy savdoda narx holatini nazorat qilish. London fond birjasida birjaviy narxni belgilash mexanizmi. Birjaviy narxni va uni kotirovkasini belgilashda market-meykerning roli. *Rossiya savdo tizimida (RTS) birjaviy narxni belgilash mexanizmi*.

Valyuta birjalarida narxni va uni kotirovkasini belgilashning xususiyatlari. Fiksing usuli va uni xarakteristikasi. Fiksing variantlari. Talab va taklif muvozanati asosidagi auksion. Valyutaning boshlang'ich start kursi asosidagi auksion.

### **Birjaviy indekslar va reytinglar, ularni hisoblash va baholash xususiyatlari**

*Fond va birjaviy indekslar tushunchasi, tarixi, ularni hisoblovchi tashkilotlar, fond indekslarini hisoblash usullari*. Fond indekslarini hisoblashdagi tanlashning reprezentativligi. Qimmatli qog'ozlar bozori likvidliligini fond indeksi dinamikasiga ta'siri. Indeksni o'zgaruvchanligi va merosliligi. Turli fond indekslarini korrelyatsiyasi. Qimmatli qog'ozlar bozorida indekslar va investitsiya strategiyalari. *Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fond indekslari: AKShda (Dow Jones, Standard and Poors, Nasdaq), Buyuk Britaniyada (FT-SE 30, FT-100), Germaniyada (DAX-30, Xetra-DAX), Frantsiyada (CAC-40), Yaponiyada (Nikkei, Nikkei-Dow Jones Average), Rossiyada (Svodniy fondoviy indeks MMVB, indeks RTS). O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida fond indekslar. «Toshkent» RFBirjasining umumlashgan fond indeksi to'g'risidagi Nizom*.

*Qimmatli qog'ozlarni tahlil usullarini (fundamental va texnik) xarakteristikasi va qo'llanilishi xususiyatlari*. Qimmatli qog'ozlar va emitentlar reytingi, uni aniqlovchi xalqaro reyting agentliklari. Mamlakatning kredit reytingi. Uzoq muddatli majburiyatlarning reytingi. Qimmatli qog'ozlarning investitsion jalbdorligi reytingi. Moliyaviy aktivlarni baholashning bazaviy modeli. Obligatsiya va aksiyalar sifat ko'rsatkichlarini baholash.

### **Jahon birja tizimi muammolari**

*Jahon birja tizimi, uning asosiy birjalari (Nyu York, London, Frankfurt, Tokio, Singapur, Stambul va boshqalar), ularni integratsiyasi shart-sharoitlari, tarixi va muammolari, jahon moliya bozoridagi o'rni va vazifalari. 30 guruhi takliflari*. O'zbekiston birjaviy bozorini jahon birja tizimiga integratsiyasining holati, muammolari va istiqbollari. "Toshkent" RFB va uning chet el birjalari va tashkilotlari bilan aloqalari.

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSI**

### **Birjaviy bozor o'rni va asoslari**

O'zbekistonda birjaviy bozorni shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish;  
O'zbekiston birjaviy bozorining qonuniy-me'yoriy hujjatlari.\*

### **Birja, uni savdo tashkilotchisi sifatidagi vazifalari**

O'zbekiston birjalarining iqtisodiyotdagi roli va vazifalari.\*  
O'zbekistonda birjaviy savdolarni ta'minlovchi birjaviy infratuzilmalarini o'rganish.

### **Birjaviy tovar, uni tarkibi va turlari**

O'zbekistonda birjaviy tovarlar sifatida qimmatli qog'ozlar, valyuta, real tovar muomalasi xususiyatlarini o'rganish.

### **Bazis bozorlar: tovar, qimmatli qog'ozlar va valyuta**

O'zbekistonning bazis bozorlarini (tovar, qimmatli qog'ozlar, valyuta) o'rganish.

### **Birjani tashkillashtirish va boshqarish**

O'zbekistonda birjani tuzish, qayta tashkil qilish va tugatish tartibini o'rganish.

«Toshkent» RFB Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlarini o'rganish.\*

«Toshkent» RFB tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv organlari, bo'limlari.

### **Birjaviy bozorda brokerlik idoralar faoliyatini tashkil etish**

«Toshkent» RFBda vositachilik, brokerlik joyi, brokerlik idorasi (firmasi), brokerlik firmasini o'rni, funktsiyasi, akkreditatsiyasi, litsenziyalash va faoliyat tartibi (mexanizmi).\*

Brokerlik firmasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari va yo'llari.

### **Birja savdolariga qimmatli qog'ozlarni kiritish tartibi**

«Toshkent» RFBda rasmiy birjaviy ro'yxat va unga kiritilish uchun qimmatli qog'ozlarga ko'yilgan talablar.

### **Birjaviy savdoni tashkillashtirish**

«Toshkent» RFBdagi birjaviy savdolar turlari va jarayonlari tartiblarini o'rganish.

### **Tovar, valyuta va fond birjalarida shartnomaviy operatsiyalarni tuzish tartibi**

O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasida operatsiyalarni tuzish tartibini o'rganish.

O'zbekiston valyuta birjasida operatsiyalarni tuzish tartibini o'rganish.

«Toshkent» RFBda operatsiyalar shartnomalarini tuzish tartibini o'rganish.\*

### **Birjada fyucherslar savdosini tashkillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasida fyucherslar savdosi to'g'risidagi Nizomni o'rganish.

Fyucherslar savdosining jahon tajribasini o'rganish.\*

### **Birjada opsiyonlar savdosini tashkillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasi opsiyonlari (1994 y).

Opsiyonlar savdosining jahon tajribasini o'rganish.

### **Birjaviy savdolar bo'yicha kliring va hisoblashuv**

Jahon fond bozorida operatsiyalar bo'yicha kliring va hisoblashuv jarayoni, tartibi.

O'zbekiston birjalarida operatsiyalar bo'yicha kliring va hisoblashuv jarayoni, tartibi.

### **Birjaviy kotirovka va birjaviy narxni belgilash**

«Toshkent» RFB qimmatli qog'ozlar kotirovkasi va narxini belgilash tartibi.\*

### **Birjaviy indekslar va reytinglar, ularni hisoblash va baholash xususiyatlari**

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi fond indekslarini (AKShda (Dow Jones, Standard and Poors, Nasdaq), Buyuk Britaniyada (FT-SE 30, FT-100), Germaniyada (DAX-

30, Xetra-DAX), Frantsiyada (CAC-40), Yaponiyada (Nikkei, Nikkei-Dow Jones Average), Rossiyada (Svodniy fondoviy indeks MMVB, indeks RTS)) o'rganish.

«Toshkent» RFBning umumlashgan fond indeksini hisoblash va baholash.

### **Jahon birja tizimi muammolari**

30 guruhi takliflarini o'rganish.

O'zbekiston birjaviy bozorini jahon birja tizimiga integratsiyasining holati, muammolari va istiqbollarini tahlil qilish.

## **4. TAVSIYA ETILGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR**

Ushbu dasturning fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar, fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar bandlarida ko'rsatilganlarning tegishlilari ko'llanilishi hamda kerakli tashkilotlarning sayt va elektron pochta orqali foydalanish mumkin. Bunda kerakli tashkilotlarning sayt va elektron pochta kafedra tomonidan berilib boriladi.

Tavsiya etiladigan saytlar:

1. Fond birjalarining xalqaro federatsiyasi [http// www. fibv. com/](http://www.fibv.com/)
2. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti [http//www.iosco.org/](http://www.iosco.org/)
3. AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasi [http//www.sek.gov/](http://www.sek.gov/)
4. Evropa ittifoqi direktivalarining to'lig' matni [http//www.europa.eu.int/](http://www.europa.eu.int/)
5. Frantsiyaning birjaviy operatsiyalari bo'yicha komissiyasi [http//www.cob.fr/](http://www.cob.fr/)
6. Italiyaning fond bozori bo'yicha komissiyasi CONSOB [http//www.consob.it/](http://www.consob.it/)
7. Ispaniyaning fond bozori bo'yicha milliy komissiyasi CNMV [http//www.cnmv.es/](http://www.cnmv.es/)
8. Avstraliyaning qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bo'yicha komissiyasi ASIC [http//www.asic.gov.au/](http://www.asic.gov.au/)
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat Markaziy Depozitariysi [http//www.deponet.uz/](http://www.deponet.uz/)
10. «Toshkent» RFB [http//www.uzse.com/](http://www.uzse.com/)
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qumitasi qoshidagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi [http//www.atm.uz/](http://www.atm.uz/)
12. Jurnal «Rinok tsennix bumag» (RF) [http//www.rcb.ru/](http://www.rcb.ru/)
13. OESR [http//www.oecd.org/](http://www.oecd.org/)
14. Evropa investitsiya banki European Investment Bank [http//www.eib.org/](http://www.eib.org/)
15. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki European Bank for Reconstruction and Development [http//www.ebrd.com/](http://www.ebrd.com/)
16. Evropa va Osiyo mamlakatlari fond birjalari Federatsiyasi Federation of Euro-Asian Stock Exchanges [http//www.feas.org/](http://www.feas.org/)
17. Evropa fond birjalari Federatsiyasi Federation of European Stock Exchanges [http//www.fese.be/](http://www.fese.be/)
18. Shimoliy Amerika fond birjalari Federatsiyasi Federacion Iberoamericana de Bolsas de Valores [http//www.fiabv.org/](http://www.fiabv.org/)
19. Merrill Lynch Merrill Lynch [http//www.ml.com/](http://www.ml.com/)
20. Morgan Stenli Morgan Stanley [http//www.ms.com/](http://www.ms.com/)
21. Dji.Pi.Morgan J.P.Morgan & Co. [http//www.jpmorgan.com/](http://www.jpmorgan.com/)
22. Buyuk Britaniya, Moliyaviy xizmatlar bo'yicha Kengash The Financial Services Authority [http//www.fsa.gov.uk/](http://www.fsa.gov.uk/)
23. Germaniya, Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha Komissiya Bundesaufsichtsamt fur den Wertpapierhandel [http//www.bawe.de/](http://www.bawe.de/)
24. Gonkong, Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha Komissiya Securities and

Futures Commission <http://www.hksfc.org.hk/>

25. XXR, Xitoy fond bozori bo'yicha Komissiya China Securities Regulatory Commission <http://www.csrc.gov.cn/>

26. Malayziya, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya Securities Commission <http://www.sc.com.my/>

27. Rossiya Federatsiyasi, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Federal komissiya <http://www.fedcom.ru/>

28. Yaponiya, Moliya Vazirligi <http://www.mof.go.jp/>

*Reyting agentliklari:*

29. Moody\*s Investors Service <http://www.moodys.com/>

30. Standard & Poor\*s <http://www.standardpoor.com/>

31. Fitch IBCA <http://www.fitchibca.com/>

32. Duff & Phelps Credit Rating Co. <http://www.dcrco.com/>

33. *Ilmiy tadqiqot tashkilotlari va konsalting firmalari:*

34. Brayon Teylor tadqiqotlari Global Financial Data <http://www.globalfindata.com>

35. Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi (AKSh) National Bureau of Economic Research <http://www.nberws.nber.org/papersbyprog/>

36. Aktsiyalar Nemis instituti Deutsches Aktieninstitut e.V. <http://www.dal.de/>

37. Internet Trading Group <http://www.internettrading.ru/>

*Axborot agentliklari:*

38. Dow Jones Co. <http://www.dowjones.com/>

39. Reuters <http://www.reuters.com/>

40. Telestock <http://www.teleserv.co.uk/>

## 5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejada jami 120 soat ajratilgan bo'lib, shundan 40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy ish, 40 soat mustaqil ta'lim. O'quv jarayoni davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 120 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 48 ball, oraliq baholashga 36 ball va yakuniy baholashga 36 ball ajratiladi. «Yozma ish» variantlar bo'yicha tuzilib, u o'quv dasturiga to'liq mos kelishi ta'minlanadi va talabalar reyting tizimi asosida belgilanadi.

Joriy va oraliq baholash turlari uchun fanga belgilangan ballar miqdori o'quv rejasi bo'yicha har semestrda ajratilgan soatning 70 foizi doirasida belgilanadi. O'qitilayotgan fanga ma'sul bo'lgan kafedraning qarori bilan mavzularning murakkabligiga va zaruriyligiga qarab ballar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi:

- magistratura tinglovchisining o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha qonuniy va me'yoriy hujjatlarni konspektlash;
- kafedra tomonidan belgilangan mavzular bo'yicha referat yozish;
- mustaqil ta'lim doirasida berilgan nazorat ishlarini bajarish.

Joriy va oraliq baholash turlari «Yozma ish» usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va xokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy baholashda fan bo'yicha dastur to'liq o'tilgandan so'ng magistratura tinglovchisining bilimi baholanadi. Yakuniy baho turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 30 foizi miqdorida belgilanadi. Fan bo'yicha yakuniy baholash bosqichi belgilangan tartibda «Yozma ish» usulida o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi fanlar uchun baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash mexanizmini ishlab chiqadi va uslubiy kengashda tasdiqlaydi.

Semestr yoki o'quv yili davomida o'qitiladigan fan bo'yicha minimal 55 va undan yuqori foyizni to'plagan magistratura tinglovchisi qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fanlar bo'yicha minimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan magistratura tinglovchisi qoniqsiz (akademik qarzdor) o'qiyotgan deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi bilan baholanadi:

- 86 foizdan 100 foizgacha (103.2 balldan 120 ballgacha);
- 71 foizdan 85 foizgacha (85.2 balldan 102 ballgacha);
- 55 foizdan 70 foizgacha (66 balldan 84 ballgacha).

«Yozma ish» variantlarini baholash mezonlari kafedra majlisining bayonnomalari bilan tasdiqlanadi.

## **6. ADABIYO TLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifamiz. T.: O'zbekiston, 2000.
3. Alexin B.I. Rinok tsennix bumag. Vvedenie v fondovie operatsii. –Samara: Samven, 1992.
4. Alekseev V.A. Rinok tsennix bumag – M: Finansi i statistika, 1993 – 250 s.
5. Birjevoe delo: Uchebnik / Pod. red. V.A. Galanova, A.I. Basova. – M.: Finansi i statistika, 1998. – 304 s.
6. Golubovich A.D., Mirimskaya O.Ya. Birjevaya torgovlya i investirovanie v SShA.- M.: MENATEP-INFORM, 1991.
7. Defosse G. Fondovaya birja i birjevie operatsii - M.: Tserix-PEL, 1992.
8. Drachev S.I. Fondovie rinki: osnovnie ponyatiya, mexanizmi, terminologiya – M.: Ankil, 1991.
9. Ivashchenko A.A. Tovarnaya birja (za kulisami birjevoy torgovli).- M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1991.-272 s.
10. Kilyachkov A.A., Chaldaeve L.D. Rinok tsennix bumag i birjevoe delo. – M.: Yurist', 2000.-704 s.
11. Mirkin Ya.M. Tsennie bumagi i fondoviy rinok.-M.: Perspektiva, 1995.
12. Rubtsov B.B. Zarubejnie fondovie rinki.-M.: Finansi i statistika, 1996.
13. Rinok tsennix bumag i ego finansovie instituti: Uchebnoe posobie / Pod. rod. V.S. Torkanovskogo, - SPb.: AO «Komplekt», 1994. – 412 s.
14. Rubtsov B.B. Mirovie fondovie rinki: sovremennoe sostoyanie i zakonomernosti razvitiya. M.: FA.- 2000.-312s.
15. Tyulz R., Bredli E., Tyulz T. Fondoviy rinok – 6-e izd.: per. s angl. – M.: INFRA-M, 1997 – VIII – 648 s. (Universitetskiy uchebnik).
16. Fondovaya birja: kak kotiruyutsya tsennie bumagi/Sost.:B.Sokolskiy; Pod red. Yu.M.Lebedeva.-M.: Vserossiyskiy birjevoy bank, 1992.
17. Chernikov G.P. Fondovaya birja: mejdunarodniy opit.-M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1991.
18. Shvarts F. Birjevaya deyatel'nost Zapada (fyuchersnie i fondovie birji, sistema raboti i algoritm analiza).-M.: Ay Kyu, 1992.
19. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. – M.: INFRA-M, 1999 – XII, 1028 s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abdullaev Yo., Shoxa'zamiy Sh.Sh. Qimmatli qog'ozlar.100 savol va javob – T.: Mehnat, 1997, - 260 .
2. Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. –Toshkent: Konsaditinform, 2001. – 472 .
3. Shoxa'zamiy Sh.Sh. va boshqalar. Tadbirkor qimmatli qog'ozlar bozorida.- Toshkent: Adolat, 2002.-275 b.
4. Shoxa'zamiy Sh.Sh. idr. Predprinimatel na rinke tsennix bumag - T.: Adolat, 2002.- 275 s.

5. Informatsionnie byulleteni RFB. «Tashkent»

6. Informatsionnie byulleteni «Rinok tsennix bumag», Agenstva «Konsauditinform»  
O'zbekiston Respublikasining moliya, bank, qimmatli qog'ozlar bozoriga oid qonuniy-me'yoriy  
hujjatlar.- sistema «PRAVO».